YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSİYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeve Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	



SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI

Fayziyev Orifjon Olimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq tizimida soliq risklarini baholash va boshqarishning uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq to'lovchilarning faoliyatini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Maqola doirasida soliq risklarini aniqlash mezonlari va ularni miqdoriy baholash modellari ko'rib chiqilgan hamda O'zbekiston soliq tizimida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, risk tahlili, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract. This article examines the methodological foundations of tax risk assessment and management within the tax system. The issues of improving tax administration in the context of the digital economy and analyzing taxpayers' activities based on a risk-oriented approach are discussed. The article considers the criteria for identifying tax risks and models for their quantitative assessment and proposes measures to improve the effectiveness of risk management in the tax system of Uzbekistan.

Key words: tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологические основы оценки и управления налоговыми рисками в налоговой системе. Обсуждаются вопросы совершенствования налогового администрирования в условиях цифровой экономики и анализа деятельности налогоплательщиков на основе риск-ориентированного подхода. В статье рассмотрены критерии выявления налоговых рисков и модели их количественной оценки, а также предложены меры по повышению эффективности управления рисками в налоговой системе Узбекистана.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global o'zgarishlar hamda davlat moliya tizimini raqamlashtirish jarayonlari soliq ma'muriyatchiligi oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Soliq tizimining barqarorligi va byudjet daromadlarining to'liqligi bevosita soliq risklarini to'g'ri baholash hamda ularni o'z vaqtida bartaraf etishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri — soliq nazorati jarayoniga riskka yo'naltirilgan yondashuvni to'liq joriy etishdir. Soliq riskini baholash uslubiyati nafaqat davlatning moliyaviy yo'qotishlarini kamaytirishga, balki halol soliq to'lovchilar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Mazkur tizim tekshiruvlar sonini qisqartirib, asosiy e'tiborni soliq to'lashdan bo'yin tovlash ehtimoli yuqori bo'lgan subyektlarga qaratish imkonini beradi.

Shu bilan birga, soliq risklarini aniqlashning matematik va statistik usullarini takomillashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda xalqaro tajribani milliy qonunchilikka moslashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola aynan mazkur uslubiy bo'shliqlarni tahlil qilish hamda sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq to'lovchilar faoliyati ustidan soliq nazoratini amalga oshirish masalalari iqtisodiy nazariya, moliya va soliq huquqi sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq nazoratining mohiyati, shakllari va usullariga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xorijiy olimlardan J. Stiglits, R. Masgrev va P. Samuelson soliq nazoratini davlat moliyaviy mexanizmining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi soliq majburiyatlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini



ta'minlashdan iborat ekanini ta'kidlaydilar [1]. Ularning tadqiqotlarida soliq nazorati soliq siyosati samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi.

Shuningdek, M. Olson, A. Smit va F. Shnayder tadqiqotlarida soliq nazorati hamda soliq to'lovchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [2]. Mualliflar samarali soliq nazorati soliqdan qochish holatlarini kamaytirishi va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qilishini asoslab berganlar.

MDH davlatlari olimlari A. G. Gryaznova, L. I. Goncharenko, I. A. Mayburov va T. F. Yutkina ishlarida soliq nazoratining nazariy-metodologik asoslari, uning shakl va usullari, shuningdek, soliq tekshiruvlarini tashkil etish mexanizmlari batafsil yoritilgan [3]. Mazkur tadqiqotlarda soliq nazorati davlat byudjeti daromadlarini ta'minlashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik olimlar Q. Abdurahmonov, A. Vahobov, Sh. Mustafokulov, B. Toshmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy soliq tizimida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning institutsional asoslari tahlil qilingan [4]. Ayniqsa, soliq nazoratini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish va riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

S. M. Olennikovning fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish soliq to'lovchining oldindan rejalashtirilgan xatti-harakatlari hisoblanadi [5].

A. Makoveskiy va Ye. A. Zareskaya soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ta'rif berib, uni soliq to'lovchining qonuniy harakatlari majmui sifatida izohlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, soliqlarni optimallashtirish — bu qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlardan to'liq foydalanish orqali soliq majburiyatlarini kamaytirish jarayoni bo'lib, bunda soliq va jinoyat qonunchiligi normalari buzilmaydi [6].

Rossiyalik olim L. Aleksandrova esa soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining ommaviyligi va ularni aniqlash murakkabligini ta'kidlab, soliqqa oid jinoyatlarni fosh etish boshqa turdagi jinoyatlarga nisbatan murakkabroq ekanini qayd etadi [7]. Uning fikricha, bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliq risklarini baholash va boshqarishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish maqsadida tizimli va kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda statistik usullardan foydalanildi.

Empirik bosqichda soliq to'lovchilarning moliyaviy va soliq hisobotlari ko'rsatkichlari asosida risk omillari aniqlanib, guruhlashtirildi. Soliq riskini miqdoriy baholashda mahalliy budjetning moliyaviy riski modeli (MrMB) hamda soliq riski koeffitsiyenti (Ksr) formulalaridan foydalanildi. Risk darajasi chegaraviy ko'rsatkichlar asosida tasniflandi.

Shuningdek, riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida soliq to'lovchilarni segmentlash metodi qo'llanildi. Tadqiqot natijalari soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va risklarni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida uzoq yillardan buyon qo'llanib kelinayotgan soliq riskini baholash tizimi respublikamiz soliq tizimida ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Mazkur yo'nalishda hali katta tajriba to'planmagan bo'lsa-da, muayyan amaliy natijalarga erishildi. Soliq riskini samarali baholash uchun, avvalo, uni amalga oshirishning aniq va asoslangan uslubiyotini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, soliq xavfini baholash hamda soliq to'lovchilarni insofililik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son¹ "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son² "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida soliq tizimida risklarni baholash va soliq to'lovchilarni insofililik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy etish vazifalari belgilab berilgan.


Mazkur yondashuvda asosiy e'tibor soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida tahlil qilish hamda ular duch kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy risklarni baholash mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Soliq risklarini aniqlash mezonlari soliq to'lovchilarning turli iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash orqali belgilanishi ustuvor uslubiy yondashuv sifatida qaraladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.07.2018 yildagi PF-5490-son <https://lex.uz/ru/docs/-3839746?ONDATE=28.12.2018>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.07.2019 yildagi PQ-4389-son <https://lex.uz/docs/-4415356>



Soliq to'lovchilarning soliq riskini baholash jarayoni uning mohiyatini ifodalovchi qo'shimcha iqtisodiy kategoriyalarni aniqlashni ham taqozo etadi. Shu bois, mazkur iqtisodiy kategoriyalar quyidagi rasmda tizimlashtirilgan holda keltiriladi (1-rasm).




1-rasm. Soliq riskini tavsiflovchi ko'rsatkichlar³

1-rasmda keltirilganidek, O'zbekiston soliq tizimida soliq riski soliq xavfi ma'nosida talqin etilib, uning mazmuni soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etmaslik ehtimoli bilan baholanadi. Mazkur ehtimollik soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olmaslik xavfini anglatadi.

Soliq to'lovchining soliq to'lay olmaslik xavfning yuzaga kelishi, o'z navbatida, davlatning soliq-moliyaviy riskini keltirib chiqaradi. Ya'ni, soliq to'lovchining soliq riskining ortishi davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga va natijada ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan qaralganda, soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini bajara olmaslik darajasi davlatning ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtira olmaslik xavfi bilan to'g'ri proporsional bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Masalan, professor S. Elmirzaev soliq riskini baholash jarayonini uni samarali boshqarish mexanizmi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, riskni aniqlash va baholash tizimi qanchalik mukammal tashkil etilsa, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi shunchalik oshadi (2-rasm).



2-rasm. Risklarni boshqarish⁴.


³ Manba: muallif ishlanmasi.

⁴ Elmirzayev S. Korporativ soliqlarni rejalashtirish: o'quv qo'llanma. – T.: 2018. – 64 b.



Muallif ta'kidlashicha, soliq risklarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun, avvalo, ularni aniqlash va baholash, shuningdek, risklarga ta'sir ko'rsatish, ya'ni ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq risklarini aniqlash va baholash jarayoni risklarni boshqarishning mantiqiy ketma-ketligidan kelib chiqqan holda quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: qonunchilikdagi munozarali holatlarni muntazam o'rganish, mavjud risklar monitoringini olib borish hamda risklar tasnifiga asoslanib ularning ehtimoliy oqibatlarini baholash.

Dotsent Sh. Boboev jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish muammosini tadqiq etar ekan, soliq risklarini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotchining fikricha, soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq riski bilan uzviy bog'liqdir. Agar soliq riski to'g'ri baholansa, prognoz ko'rsatkichlari bilan haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi va prognozlash jarayonidagi xatoliklar kamayadi⁵.



3-rasm. Soliqlarni prognoz qilishda risk tahlili modeli⁶

5 Boboev Sh.B. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020-yil. – 19 b.

6 Boboev Sh. B. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020-yil. – 20 b.



Mazkur tadqiqotchining soliq riski bilan bog'liq izlanishlari, fikrimizcha, uslubiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, muallif soliq riskini mahalliy budjetlarning moliyaviy risklari bilan uzviy bog'liq holda o'rganib, o'ziga xos uslubiy yondashuvni taklif etadi. Uning ta'kidlashicha, "soliq riskini boshqarishga doimiy ehtiyoj mavjud. Uni barqaror boshqarish uchun, avvalo, uning darajasini baholash zarur. O'z navbatida, soliq riskini baholash ma'lum tizimli modellarni talab etadi".

Shu asosda quyidagi uslubiyot taklif etiladi:

Mahalliy budjetning moliyaviy riski darajasi (Mr_{MB}):

$$(Mr_{MB}) = -\Sigma SROHSTK + \Sigma STO + \Sigma BKTD, \quad (1)$$

bu erda: $\Sigma SROHSTK$ – soliq riski oshishi hisobiga soliq tushumlari kamayishi;

Σsto – soliq tushumlarining oshishi;

BKTD – boshqa ko'zda tutilmagan daromadlar bo'yicha tushumlar.

Agar,

$$\Sigma sto > \Sigma SROHSTK \text{ yoki } \Sigma BKTD > \Sigma SROHSTK$$

bo'lsa, soliq riski nolga teng deb baholanadi va mahalliy budjet prognoz ko'rsatkichlarining barqaror bajarilishi ta'minlanadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Shuningdek, soliq riski koeffitsiyentini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Muallif tavsiyasiga ko'ra, u quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{sr} = \frac{\Sigma SROHSTK}{MBSDP} \quad (2)$$

$$K_{sr} = \frac{\Sigma SROHSTK}{MBSDP} \quad (2)$$

bu erda: MB_{SDP} – mahalliy budjetlarning solikli daromadlari prognoz ko'rsatkichi.

Soliq xavfini to'g'ri baholash soliqlardan bo'yin tovlash holatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat budjetiga rejalashtirilgan soliq tushumlarining kelib tushish darajasini davriy ravishda baholab borish budjet daromadlari parametrlarining bajarilishini ta'minlashda muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda soliq xavfini aniqlovchi mezonlar hamda uning darajasini belgilovchi ko'rsatkichlarni ilmiy asosda aniqlash talab etiladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarini segmentlash va soliq xavfi tahlilini o'tkazishning uslubiy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Soliq xavfini baholash jarayonida uning vazifalari, tamoyillari va amalga oshirish bosqichlarini aniq belgilab olish uslubiy jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

Soliq riskini kamaytirish, uni jilovlash hamda u bilan bog'liq salbiy oqibatlarining oldini olishda soliq xavfini boshqarish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Soliq xavfini boshqarish muayyan usullar va mexanizmlarni qo'llashni talab qiladi. Davlat o'zining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilib, soliqqa tortish bilan bog'liq xatarlarni ma'lum darajada o'z zimmasiga oladi. Shu bois soliq risklari nafaqat iqtisodiy subyektlar, balki turli darajadagi boshqaruv organlari uchun ham muhim hisoblanadi.

Soliq riski mavjud bo'lgan har bir subyekt guruhi uchun u moliyaviy va boshqa turdagi yo'qotishlar shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Bu holat soliqqa tortish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar va ularning maqsadlariga bevosita bog'liqdir. Yangi soliqlarni joriy etish, soliq yukini oshirish yoki soliq qonunchiligiga kiritiladigan o'zgarishlar, shuningdek, mavjud normalarni o'z vaqtida takomillashtirmaslik davlat uchun soliq tushumlari yo'qotilishi xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Soliq bosimining haddan tashqari oshishi ayrim soliq to'lovchilarning yashirin iqtisodiyotga o'tishiga, boshqalarining esa soliq majburiyatlarini minimallashtirishga intilishiga olib keladi. Natijada, kutilgan daromad o'sishi o'rniga budjet tushumlarining kamayishi kuzatilishi ehtimoli mavjud.

Soliq qonunchiligining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ham soliq risklarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Hozirgi bosqichda davlat soliq siyosatining asosiy vazifasi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq to'lovchi ixtiyorida qoladigan mablag'lar hamda budjet mexanizmlari orqali qayta taqsimlanadigan resurslar o'rtasida maqbul nisbatni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iboratdir.

Mamlakat soliq tizimi soliq yukini izchil kamaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit yaratishga yo'naltirilgan. Soliq organlarining asosiy maqsadi soliq qarzdorligi yig'imchanligini oshirish va riskli vaziyatlarni kamaytirishdan iborat. Yuridik shaxslar uchun soliq to'lovlari



xarajatlarning muhim qismini tashkil etganligi sababli, ichki nazorat tizimida soliq risklarini boshqarish va monitoring qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilvosita soliq risklarini boshqarishning samarali tizimini yaratish kompaniya qiymatining oshishiga xizmat qiladi, chunki kutilmagan salbiy holatlarning kamayishi investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Biroq bu soliq risklarini to'liq bartaraf etish mumkinligini anglatmaydi, chunki ayrim risklar obyektiv xususiyatga ega. Shunga qaramay, ularni o'z vaqtida aniqlash, baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda istiqbolli yondashuvni qo'llash zarur.

O. V. Gordeevaning fikriga ko'ra, soliq risklarini kamaytirishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

- soliq qonunchiligi talablariga ehtiyotkorona yondashish;
- yetarlicha tartibga solinmagan masalalarni hal etishda muvozanatli qaror qabul qilish;
- qonunchilikni noaniq talqin qilish bilan bog'liq bitimlarda kasbiy konservatizmni saqlash;
- amaldagi qonunchilik doirasida soliqqa tortishni optimallashtirish hamda soliq yukini maqbul chegaralarda ushlab turish.

Risk darajasini pasaytirishda diversifikatsiyalash, qo'shimcha axborot olish, limitlash, sug'urtalash va o'z-o'zini sug'urtalash kabi usullar qo'llaniladi. Diversifikatsiyalash turli variantlarni qo'llash orqali riskni taqsimlashni anglatadi. Axborotning to'liqligi soliq riskini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi, chunki to'liq ma'lumot aniq prognoz tuzish imkonini beradi. Bunday ma'lumot manbalari qatoriga soliq maslahatchilari xulosalari, vakolatli organlarga yuborilgan so'rovnoma va sud amaliyoti tahlili kiradi.

Limitlash riskli operatsiyalar uchun maksimal chegaralarni belgilash orqali risk darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. O'z-o'zini sug'urtalash (zahiralash) esa korxona tomonidan ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun ichki xazira fondlarini shakllantirishni anglatadi. Sug'urtalash mexanizmi esa riskni sug'urta kompaniyasiga o'tkazish orqali moliyaviy yo'qotishlarni kompensatsiya qilishni nazarda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq risklarini aniqlash, baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, nazorat resurslarini yuqori riskli segmentlarga yo'naltirish hamda profilaktik monitoring mexanizmlarini kuchaytirish soliq ma'murchiligining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli soliq nazorati vositalarini rivojlantirish, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali soliq tushumlarini prognozlash aniqligini oshirish mumkin.

Shuningdek, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish, ochiq va shaffof kommunikatsiya muhitini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq risklarini boshqarishda analitik platformalar, sun'iy intellekt elementlari va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish riskli operatsiyalarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Natijada, soliq nazoratining samaradorligi oshadi, budjet tushumlari barqarorlashadi hamda soliq tizimiga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musgrave R. A., Musgrave P. B. Public Finance in Theory and Practice. — New York: McGraw-Hill, 1989.
2. Stiglitz J. E. Economics of the Public Sector. — New York: W. W. Norton & Company, 2000.
3. Samuelson P. A., Nordhaus W. D. Economics. — New York: McGraw-Hill Education, 2010.
4. Schneider F., Enste D. H. The Shadow Economy: An International Survey. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
5. Ismoilov B. S. Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda kontragentlarni tekshirish amaliyotini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — T.: 2024. — 11 b.
6. Майбуров И. А. Налоги и налогообложение: учебник. — М.: Юрайт, 2020.
7. Гончаренко Л. И. Налоговый контроль: теория и практика. — М.: Финансы и статистика, 2018.
8. Юткина Т. Ф. Налоги и налогообложение. — М.: ИНФРА-М, 2019.
9. Вахабов А. В. Солиқлар ва солиққа тортиш. — Тошкент: Иқтисод—молия, 2019.
10. Абдурахмонов Қ. Х. Давлат молияси ва солиқ сиёсати. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi, 2020. — 640 b.
12. Olennikov S. M. Kvalifikatsiya ukloneniya ot uplaty nalogov po obyektivnym priznakam sostava prestupleniya // Yuridicheskaya otvetstvennost i otvetstvennyye yuristy. — 2017. — № 4. — S. 37–42.
13. Makoveskiy S. A., Zareskaya Ye. A. Uklonenie ot uplaty nalogov: osobennosti prestupleniya i nakazaniya // Vestnik instituta ekonomicheskix issledovaniy. — 2017. — № 3(7). — S. 156.
14. Kottke K. «Gryaznye» den'gi — chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel'stvu v oblasti «gryaznyh» deneg. — M., 1998.
15. Aleksandrova L. I. Osnovnyye osobennosti i problemy vyivavleniya ukloneniya ot uplaty nalogov // Aktualnyye problemy pravovogo regulirovaniya. — 2017. — S. 2.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
